



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o'zgarishlar va ularning tahlili, so'z asosida yuz beradigan o'zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq janitpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalarida o'zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba'zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o'zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo'llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko'chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po'ltan shoir ijrosidagi "Gulnor pari" dostonining morfologik xususiyatlari (bulung'ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o'zbeklar shevasi o'rganilishining dolzarbligi	373

4-O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O'RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo'shiqlarda an'anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, "Alpomish" dostonida islomiy-ma'rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O'zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO'XTAQULOVA, Xalq qo'shiqlari matnida "ko'z" bilan bog'liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an'ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O'zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

4-SHO'BA. O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI
VA O'RGANILISH TARIXI

QO'SHIQLARDA AN'ANAVIY QAYTARIQLAR

TRADITIONAL REACTIONS IN SONGS

Shomirza TURDIMOV,

O'ZR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Folklor bo'limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807

Annotation. *The article is devoted to the issues of traditional refrains that provide performance paths in folk songs. The genesis, semantic scope, and function of the «yakquyak» refrain in connecting quatrains in the performance process are studied.*

Key words: *folk song, narrator, traditional refrain, variant, genre, performance style, composition, melody, repetition.*

Xalq qo'shiqlari tarkibida an'anaviy qaytariqlar o'ta muhim o'rin tutadi. An'anaviy qaytariqlar qo'shiq ohangi, ijro yo'lini belgilovchi, qo'shiq kompozitsiyasini tutib turuvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ammo shu yo'nalishdagi ayrim umumiy qaydlarni hisobga olmaganida, an'anaviy qaytariqlar maxsus tadqiq etilgan emas [Оқ олма, қизил олма 1972:5-7; Келиной кўшиқлари 1981:4-5].

Xalq qo'shiqlari hamda raqslarning ijro jarayonida qo'shiqchi va raqqoslar aytuvchi ushbu qaytariqlarga tez-tez duch kelamiz: “Kishtala-kishtala”, “Kishtala-kishta”, “Kishtala ho, kishkala”, “He-ha-hey, dumtak”, “Uhu jaqala”, “Ahu-hu hay, aha, ahu-hu hay, aha”, “Laqala qiton, umbala qiton, laqala-laqala”, “Umbala, umbala qiton, laqala qiton”, “Laqu laqala”, “Yah-ha, ha, ha, ha, yah-ha, ha, ha, ha”, “Shiqilama-shiqilama, shiqilama, oh-ha shiqilama, oh-ha shiqilama” va boshqalar.

Ushbu qaytariqlarning ma'lum qismi bayt, to'rtliklar bilan ijro etiladi. Ayni vaqtda bevosita har bir qo'shiqqa xos qaytariqlar ham mavjudki, ular yuqorida qayd etilgani kabi ijroda qo'shiqning ohang yo'lini – kuyni ta'min etadi, qo'shiq tarkibida she'riy to'rtliklarni o'zaro bog'lovchi kompozitsion qolip vazifasini bajaradi. Odatda, ijrochi va tinglovchilar o'rtasida qo'shiq nomi ushbu qaytariqlar yoki ularning dastlabki so'zlari bilan yuritiladi. Masalan: “Omon yor”, “Sumbula”, “Yo'l bo'lsin”, “Nayzongul”, “Vahay bola”, “Jinaylik”, “Hilila”, “Zebomxon”, “Oq bilagim”, “Gulyor”, “Yosh-yoshgina” kabi.

Tarkibiy jihatdan qaralsa, an'anaviy qaytariqlar bir so'z, so'zlar birikmasi – misra, biror bir band yoki to'liq to'rtliklar, beshlik, oltilik hatto sakkiz misradan ham iborat bo'lishi mumkin. Qaytariqlarning to'rtlik shakli qo'shiqlarda ko'p uchraydi. “Gulyor”, “Omonyor”, “Jinaylik”, “Ajab-ajab” kabi qaytariqlar misra so'ngida takrorlanib kelsa, “Qadamingda gullar ochilsin”, “Yosh-yoshgina bola yoshgina, kokil solay astogina” kabi qaytariqlar har bir band yoki to'rtlikdan keyin takror aytiladi.

Ijro jarayonida ma'lum bir to'rtliklar u yoki bu an'anaviy qaytariqlar bilan qat'iy bog'liq kuylanadi va boshqa qaytariqlar tarkibida kelmaydi. Ammo ko'pchilik erkin to'rtliklar u yoki bu qaytariq ohangiga mos kuylanib kelishi mumkin. Masalan, “Galdir”

qo'shig'i "*Beqasam to'nlar kiyib*" misrasi bilan boshlanadi va ushbu boshlanmali to'rtlik qo'shiq uchun barqaror sanaladi. Ammo qo'shiqning:

Oq ilon, oppoq ilon,

Oydinda yotganing qani?

Men yomondan ayrilib,

Yaxshini topganing qani? [Меҳриғиёх 2012:25]

to'rtligi "*Farg'onacha*" [Меҳриғиёх 2012:20] nomini olgan ohang yo'lida ham kuylanishini kuzatishimiz mumkin. Demak, bu misra erkin to'rtlik sanaladi. Bu xil misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ijroda ro'y beruvchi badiha an'anaviy qaytariq tug'diruvchi ohang o'lchamlari doirasida amalga oshadi. Ijro jarayonida erkin to'rtliklarning o'zni, biror bir vaziyatga qarab o'zgarishi, ba'zi so'z va misralar yangilanishi, holatga qarab to'rtliklarning ma'lum qismi bir necha ohangga mos kuylanishi mumkin. Lekin an'anaviy qaytariqlar zamonlar osha deyarli o'zgarishsiz keladi. Bu esa o'z navbatida an'anaviy qaytariqlarning qo'shiq ohanglari paydo bo'lishini aniqlashda tayanch unsurlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ko'pchilik holatlarda an'anaviy qaytariqlarning mazmuni bugungi kun tinglovchisi uchun sirli bo'lib qoladi. Ba'zan hech bir ma'noga ega emas, faqat ohang uchun qaytariluvchi tovushlar birikmasidek taassurot uyg'otadi. Masalan: "*Taralli yalli ho, taralli lay-lay-lay*", "*Uhu jaqala*", "*Yaqu-qu-yaq*" kabi. Ammo aksariyat bu tur qaytariqlar tarkibida ma'lum tovushlar, birikmalarning takrorlanib kelishini kuzatamiz. Masalan, "*hu/qu*", "*yaq/jaq*", "*la/lay*" kabi. Xususan "*la*" birikmasi ko'pchilik qo'shiq janrlari atamalar o'zak tarkibida ham kelishini ko'rishimiz mumkin: "*alla*", "*yalla*", "*o'lan*", "*lapar*", "*ashulla*". Bu holatni tasodif deya baholab bo'lmaydi. Chunki takrorlarning ko'pligi qonuniyatdan xabar bermoqda. Demak, an'anaviy qaytariqlar, ularni tashkil etuvchi so'zlarni sinchiklab o'rganish qo'shiqlar tarixi, ohanglar sirlarini ochishda o'ziga xos kalit vazifasini bajarishi aniq.

Biz bu o'rinda barcha an'anaviy qaytariqlar xususida batafsil to'xtalish imkoniga ega emasmiz. Birgina "*Yaqu-qu-yaq*" qaytarig'i yuzasidan fikrlarimiz bilan o'rtoqlashamiz.

Surxondaryo hududlarida qadim-qadimdan kuylanib kelayotgan bu qo'shiq yo'li bugunda bir qator folklor dastalari repertuaridan mustahkam o'rin olgan. Qo'shiq quyidagi barqaror to'rtlik bilan boshlanadi:

Tog'lar boshi o'rama,

Kiyik shoxi burama,

Boy qizini bermasa,

Boyni xudo urama.

Yaqu-qu-yaqu, yaqu-qu-yaq,

Yaqu-qu-yaqu, yaqu-qu-yaq.

Qo'shiq ohang yo'lini belgilab berayotgan, uni kompozitsion yaxlitlikda tutib turgan "*Yaqu-qu-yaq*" qaytarig'ining bizga sirli qolgan ma'nosi qanday? Bu savolga javob boshqa bu xil mazmuni unitilgan ko'plab an'anaviy qaytariqlarning ham tarixini ochishga imkon beradi.

Savolga javob axtarishni "*Yaqu-qu-yaq*" qaytarig'iga uyg'un yoki yaqin keluvchi boshqa namunalarni aniqlashdan boshlash o'rinli. Kuzatishlarimiz ko'rsatdiki, Xorazm xalq qo'shiqlari tarkibida keluvchi "*jaqu-jaqu*", "*uhu chaqala*" an'anaviy qaytariqlari, Samarqand va Jizzax viloyatlarining Bulung'ur, G'allaorol tumanlari hududidagi "*chavqi*"

qo'shiq-raqs turkumining nomi, Farg'ona vodiysidagi tamosha ma'nosida qo'llaniluvchi "chavqi" atamasi (*darbozlar chavqisi, masxarabozlar chavqisi, qo'g'irchoqbozlar chavqisi*) nomlarida o'zaro uyg'unliklar ko'zga tashlanadi.

Keltirilgan nomlar, atamalar tizimidagi "yaqqu-yaq", "jaqu-jaqu", "chaqala", "chavqi" so'zlari asosidagi birlamchi birikma "yaqqu/jaqu/chavqi" bo'lib, u o'z navbatida ikki mustaqil o'zak so'z "yaq/jaq/chav" va "qu/qi" birikmalaridan iborat. O'zbek tili (shevalar ham inobatga olingan)dagi *ya(ya)*, *j*, *s*, *ch* hamda *q*, *k*, *g* va *u*, *o'*, *i* tovushlarining bir-biriga o'tish hodisasini inobatga olsak, u holda bu *yaq* so'zining *jaq(jak, jag)*, *yaq(yak, yag)*, *chaq(chak, chag)*, *saq(sak, sag)* variantlariga ega bo'lamiz (tarixan *ja, ya, cha, sa* bo'lishi ehtimoli yaqinroq).

Har bir so'zning tub ma'nosini topish uchun, avvalo, o'zak so'z va shu o'zakdan hosil bo'lgan so'zlarning semantik qatorini va ko'lamini qarab chiqish kerak bo'ladi. V.V.Radlovning "Опыт словаря тюркских наречий" lug'atida ushbu variantlardan "chaq"ning olti xil ma'nosi keltirilgan. Olim "chaq"ning ilk – ikki narsaning bir-biriga urilishidan chiquvchi ovoz – ma'nosini keltirgan, misol sifatida "qarsak" so'zini bergan. "Chaq"ning boshqa ma'nolari ham, asosan, ushbu o'zak ma'noga bevosita va bilvosita uyg'un ekanligini anglaymiz [Радлов 1905].

Hozirgi o'zbek tilidagi "chaqmoq", "chaqchaqlashmoq", "chaqimchi", "chaqmoqtosh", "chaq" (*yondir*), "chopqi" so'zlari o'zagida ham "chaq"ning ikki narsani bir-biriga urulishidan hosil bo'luvchi tovush, hodisa yoki gap-so'zni bir obyektidan ikkinchisiga yetkazish, o'zaro suhbat mazmunlari turibdi. Bu so'zlar tovushga taqlidan yasalgani anglashiladi.

Mahmud Koshg'ariy *sav* so'zining bir ma'nosini "ilgarigi xabar, yangiliklarni aytuvchi kishi, *savchini* esa *payg'ambar* sifatida izohlaydi" [Косфарий 2016:104]. *Sav* so'zi ham bilvosita mazmunan *saq/chaq* o'zagiga bog'lanishini ko'rishimiz mumkin.

Keltirilgan misollar asosida *jaq/chaq/chav/sav* so'zlarining tub ma'nosi ovoz, *xabar, qarsak* yoki *ikki narsaning bir-biriga urilishidan chiqadigan sas* deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Yaqqu/chavqi/jaqu so'zlaridagi ikkinchi qism *qu/ki* ning fonetik variantlari *ku/xu/ki*. Xalq qo'shiqlaridagi an'anaviy qaytariqlar orasida bu o'zak ham turli variant va versiyalarda, boshqa so'z birikmalari tarkibida uchraydi. Jumladan, bolalar qo'shiqlarida *xu/ho/huy* shaklida, ovutmachoda:

Huyya huy,

Talqon tuy.

Bolalar o'yin qo'shig'ida:

Haqqu, haqqu bilazuk,

O'ng qo'limda o'n uzuk...

tarzida ijro etilsa, Beshqarsak raqs qo'shiqlari ijrosida *huv/huy/xu/hey, ha, hah* ko'rinishida keladi.

So'fiylar va qalandarlar zikrida ham *hu/huv* mantrik¹⁶ qaytarig'i mavjud.

Qadimgi misrliklar dunyo Tot tomonidan (*donolik, haqiqat va tartib ma'budi, hisob-kitob hamda xat-yozuv homiysi*) [Мифы народов мира 1992:521-522] aytilgan "Xuu" so'zining quvvatidan paydo bo'lgan deb tushuntirishadi; so'fiylar esa so'fiylik mohiyatini ramziy ifadalovchi sakkiz burchakda "huv" aks etadi deb anglashida; Dzen

¹⁶ Мантра – зикр тушганда айтилувчи оҳанг сўзлар (*муаллиф изоҳи*).

buddaviy ta'limotida oliy quvvat "ku" deb atalib, barcha insonlar vafot etgach unga qaytishi lozim deb bilishadi. Bular da *hu(v)/ku* ning mazmuni anglashiladi. Ko'rinib turibdiki, *hu/huv/ku* barcha din va ta'limotlarda eng ko'hna mantra hisoblanib, oliy quvvat ifodasi, uning tajassumi sifatida qaralgani oydinlashmoqda. Demak, *yaqqu/jaqu/chavqi* so'zlarining tub asosida turuvchi *chaq* va *qu* so'zlari qadim mantrik o'zak bo'lib, ularning ma'nosi umumiy tarzda ifodalansa: oliy quvvat birligi bo'lgan ilohiy qarsak, qarsak jo'rliqidagi qo'shiq va raqs yordamida ruhoniyl bilim va axborot olish ma'nolariga ega. Bu holatni so'fiylar zikridagi "huvva hu" qaytarig'i bilan barobar qo'yish mumkin.

Raqs va qo'shiq ijrosida *yaqqu-yaq* yoki *jaqu-jaqu* qaytariqlaridan paydo bo'luvchi ohang tebranishlari kishi ruhiyatiga ta'sir etib, uni oliy quvvat tebranishlariga rostlagan. *Yaqqu-yaq* yoki *jaqu-jaqu* qaytariqlari xalqimizning qadimiy diniy-marosimiy raqslaridan bizning kunimizgacha omon saqlanib kelayotgan ko'hna mantrik so'zlar hisoblanadi. Keyinchalik bu qaytariq so'zlari ma'lum qo'shiq va raqs nomlari, qo'shiq-raqs turkumi yoki ko'chma ma'noda tomosha mazmunini ifodalovchi atamalarga aylandi.

Yaqqu-yaq kabi qo'shiq-raqsalar tarkibida keluvchi ko'plab qaytariqlar xalqimiz tafakkur tarixini, uning tadrijiy rivojlanish bosqichlari va yo'llarini ko'rsatuvchi bebaho xazinalar hisoblanadi. Bu so'z-atamalar olamiga sayohat san'atimiz, folklorimizning naqadar qadimiy va boy ekanligini yana bir bor namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Келиной кўшиқлари. – Тошкент, Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
2. Mahmud Koshg'ariy. *Devonu lug'ati-t-turk*. III jild. – Toshkent, 2016.
3. Mehriyoh (O'zbek xalq qo'shiqlari). – Toshkent, 2012.
4. Мифы народов мира. Энциклопедия, 2 том. – М., 1992.
5. Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари / Тўпловчи Музайяна Алавия. – Тошкент: Фан, 1972.
6. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. 3. Часть 2. – Сг., 1905.

